

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15713344>

O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO: HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

Rashidov Javohir Farxod o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası stajyor o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qo‘shni mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganligi hamda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi o‘tgan yillarga nisbatan qariyb ikki barobar o‘sganligi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo mamlakatlari, strategik hamkorlik, tovar ayirboshlash hajmi, savdo-sotiq, sanoat, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi va Yevropa Ittifoqi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье приводится информация о том, что многоплановое сотрудничество между соседними странами вышло на качественно новый уровень, а объем торговли Узбекистана со странами Центральной Азии по сравнению с предыдущими годами увеличился почти вдвое.

Ключевые слова: *страны Центральной Азии, стратегическое сотрудничество, объем торговли, торговля, промышленность, энергетика, транспорт, сельское хозяйство и Европейский Союз.*

ABSTRACT

This article provides information that multifaceted cooperation between neighboring countries has reached a qualitatively new level, and the volume of trade between Uzbekistan and Central Asian countries has almost doubled compared to previous years.

Key words: *Central Asian countries, strategic cooperation, trade volume, trade, industry, energy, transport, agriculture and the European Union.*

Kirish. Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan ilk kunlaridanoq tashqi siyosat sohasida barcha davlatlar bilan do'stlik va strategik sheriklik aloqalarini kengaytirish bo'yicha muhim tashabbus va vazifalarni belgilab berdi va shu harakatlar kesimida qisqa muddatda muhim natijalarga erishilmoqda. Hozirda bu bajarilayotgan o'zgarishlar xalqimiz va jahon hamjamiyati tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanayotgani quvonarlidir. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarda erishilgan ulkan natijalar buning yorqin misoli bo'ladi.

So'nggi yillarga nazar solsak, Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamjihatlik asosida bir-birlariga muntazam insonparvarlik ko'magi ko'rsatmoqda. Savdo-iqtisodiy ko'rsatkichlarning yildan yilga ortib borayotgani o'zaro aloqalarning keskin sur'atlarda rivojlanayotganini anglatadi. Jumladan, oxirgi o'n yillik oralig'ida O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi qariyb ikki barobar oshib, jami 5 milliard dollarni tashkil etdi. 2016-yildan buyon ro'yxatdan o'tgan qo'shma korxonalar soni 5 barobardan oshib, 1600 taga yetdi. Tashqi investitsiyaviy hamkorlik aloqalari faollashishi natijada qo'shma investitsiya kompaniyalari tuzilmoqda.

O'zbekiston-Qozog'iston. Mamlakatimiz Milliy statistika qo'mitasi joriy yil dastlabki 4 oyda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,3 foiz o'sgani, bugungi kunda O'zbekiston 183 davlat bilan savdo munosabatini yo'lga qo'ygani haqida o'z rasmiy sahifasida ma'lumot joylagan.

Asosiy hamkorlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi yetakchi: XXR bilan “oldi-berdi” 4,1 milliard dollardan oshdi. Bu umumiy hajmning 17 foiziga teng. Rossiya bilan eksport-import ko‘rsatkichi 15,1 foiz - ikkinchi natija. Uchinchi yirik hamkor - Qozog‘iston bilan tovar va xizmat ayirboshlash qiymati esa 1,4 milliard dollarga yaqinlashdi. O‘shish o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 168 million dollarni tashkil etdi.

Ostona va Toshkent o‘zaro savdoni yiliga 10 milliard dollarga yetkazish niyatini va maqsadini bildirgan. Shu maqsadda Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasida qo‘shimcha 4 ta savdo yo‘lagi barpo etiladi. O‘tgan yil jami almashilgan mahsulot va xizmat narxi 4,2 milliard dollardan oshgan.

O‘zbekiston-Qirg‘iziston. Hozirda o‘zbek-qirg‘iz munosabatlarida ijobiy o‘shish dinamikasini barcha sohalarda ko‘rishimiz mumkin. Jumaladan, 2016-yildan 2023-yilgacha davrda o‘zaro mahsulot ayirboshlash hajmi salkam 7 barobar o‘shib, 167,5 million dollardan qariyb 1 milliard dollargacha yetdi. Joriy yil boshidan buyon esa bu raqam 21 foizga o‘shib, salkam 400 million dollarga yetdi.

Yaqin kelajakda mamlakatlar o‘zaro tovar aylanmasi miqdorini 2 milliard dollarga yetkazishni rejalashtirmoqda. Ushbu ko‘rsatkichga erishish uchun barcha salohiyat va imkoniyatlar mavjud. Eng quvonarlisi, hamkorlikka bo‘lgan intilish har ikki tomonda ham kuchli namoyon bo‘lmoqda.

Hozirda tomonlar transport-kommunikatsiyaviy, energetika, suv xo‘jaligi va boshqa turli sohalarda o‘zaro hamkorlikni oshirib bormoqdalar. Mamlakatimizda Qirg‘iziston kapitali ishtirokida 260 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda. Qo‘shni davlat hududida O‘zbekiston rezidentlari ishtirokida 70 ta korxona faoliyat olib bormoqda.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik ham alohida o‘ringa ega. Hozirda qardosh va qondosh o‘zbek va qirg‘iz xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiluvchi qator madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zbekiston-Tojikiston: Ikki qo‘shni mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalar ancha faollashdi. Ikki tomonlama tovar ayirboshlashda sezilarli

o'sish kuzatiladi. So'nggi yetti yilda o'zaro savdo hajmi 197 million AQSH dollaridan 757 million dollargacha o'sdi.

Bu vaqtda O'zbekistonga Tojikiston eksporti 3,5 baravar, Tojikistonga o'zbek eksporti 4 baravar oshdi. Hozirda mamlakatimiz Tojikistonning 5 ta eng yirik savdo hamkorlari qatoridan o'rin olgan. Shu qatorda, Tojikiston ham O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida 10-o'rinni egallamoqda. O'zaro savdo hajmini joriy yil oxirigacha 1 milliard dollargacha yetkazish uchun barcha asoslar va tashabbuslar bor. Birgalikda, qo'shma investitsiya loyihalar ham amalga oshirilmoqda: o'zbek-tojik korxonalari soni 2016-yilda 34 tadan 2023-yilda 339 tagacha ko'paydi.

O'zbekiston-Turkmaniston. Do'stlik, ishonch, yaxshi qo'shnihilik va strategik sheriklik tamoyillariga asoslangan ko'p qirrali O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlari jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. 2024-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi. Sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida o'zaro manfaatli hamkorlik rivojlanmoqda va kooperatsiya chuqurlashmoqda. Birgalikda "Shovot – Toshovuz" chegaraoldi savdo zonasi tashkil etilmoqda, faol hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuv dasturi doirasida tadbirlar tashkillashtirilib kelinmoqda.

Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi. 2025-yil 4-aprel kuni Samarqand shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti bo'lib o'tdi. Kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi, xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlarini yuzasidan fikrlar ilgari surildi.

Investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirboshlashni oshirish, innovatsiyalar, "yashil" energetika, tog'-kon, qishloq xo'jaligi, transport, logistika va raqamlashtirish sohalarida qo'shma dastur va kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, madaniyat, turizm, fan, ta'lim va boshqa ustuvor yo'nalishlarda faol almashinuvlarni davom ettirish masalalariga alohida e'tibor jalb qilindi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Umummintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantirish, shuningdek, madaniy-gumanitar va ta'lim almashinuvini qo'llab-quvvatlash bo'yicha birgalikdagi ishlar alohida qayd etish kerak. Ta'lim sohasida mamlakatlarimizda yetakchi milliy ta'lim muassasalarining filiallari ochilishini ta'minlash zarur. Mintaqa va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashgani kuzatilmoqda. So'nggi yetti yilda mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi bir necha barobar o'sib, 54 milliard yevroni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALARI

1. www.stat.uz
2. www.isrs.uz
3. www.president.uz
4. www.yuz.uz